



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMYIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMYIY-AMALYIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

DORIVOR O‘SIMLIKLARINING XUSUSIYATLARI

Abdurazzakova Maftuna G‘ayrat qizi

magistrant

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

e-mail: maftunaabdurazzoqova507@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada dorivor o‘simliklarning geografik tarqalish hududlari, tabobatda foydalanish, dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibi, ishlatilishi, xususiyatlari haqida keng yoritilib berilgan. Shuningdek, dorivor o‘simliklarning inson hayotida tutgan o‘rni haqida ham ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: dorivor o‘simlik, efemer, efemeroid, tekislik, dasht, tog‘.

THE PROPERTIES OF MEDICINAL PLANTS

Abdurazzakova Maftuna

Abstract: This article describes in detail the geographical distribution of medicinal plants, their use in medicine, the chemical composition, use and properties of medicinal plants. There is also information about the role of medicinal plants in human life.

Key words: medicinal plant, ephemeral, ephemeroid, plain, steppe, mountain.

Insoniyat qadimdan boshlab o‘simlik dunyosiga qiziqib kela boshlagan. Ibtidoiy jamoa paytlarida odamlar tabiatga moslashish jarayonida o‘simlik dunyosini geografik tarqalish hududlarini, uning kimyoviy tarkibi va xususiyatlarini o‘rgana boshlaganlar. Qomusiy olim Abu Ali ibn Sino tibbiyot sohasida yozgan “Tib qonunlari” kitobida dorivor o‘simliklar haqida batafsil ma’lumotlar keltirib o‘tgan. Bu muqaddas zamin tuprog‘idagi har bir giyohning yaprog‘idan ildizigacha turli dardlarga shifo bo‘lishi azaldan isbotlangan [2].

O‘zbekiston relyefining xar-xilligi tufayli tuprog‘i va o‘simlik olami har xil bo‘ladi. Yerlari qum, taqirlardan iborat. O‘zbekistonda 4150 atrofida o‘simliklar turlari uchraydi. O‘sadigan yovvoyi o‘simliklarning 700 ga yaqin turi dorivor hisoblanadi. O‘zbekiston florasida o‘simliklar olamida alohida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Janubiy pastroq zonalarda efemeroidlarga xos [1].

1-jadval

Ayrim dorivor o'simliklarning xususiyatlari

T/r	O'simliklarning nomi	Geografik tarqalishi	Qo'llaniladigan qismi	Kimyoviy tarkibi	Ishlatilishi
1	Oddiy archa	Oddiy archa MDH davlatlarining ignabargli va mayda bargli aralash o'rmonlarida ba'zan botqoqli o'rmonlarda o'sadi.	Tibbiyotda oddiy archaning qubba mevasi ishlatiladi. Qubbalar kuzda, archa tagiga chodir yozib qoqib olinadi. Xom mevalaridan, shox va barglardan tozalangach, pishgan qubba havo kirib turadigan xona yoki chortoqlarda quriladi.	Oddiy archa mevasi tarkibida 0,5-2 % efir moyi, 40% qandlar, organik kislotalar, smola, bo'yoq, pektin va boshqa moddalar bor.	Archa bargidan olingan efir moyi fitonsid ta'siriga ega bo'lib, trixmonadli kolpitni davolashda ishlatiladi.
2	Oq tol	Oq tol MDH davlatlarida tarqalgan o'simlik.	Oq tol po'sti dorivor xomashyo. Uni erta bahorda 6-7 yoshdagi daraxtlardan olinadi. Olingan po'sti maydalanadi va quyoshda yaxshilab so'ltiladi va quritgichda 50-60°C haroratda quritiladi. Tayyor bo'lgan homashyo sinishi kerak. Kartonli idishda 2 yil saqlanadi.	Po'sti tarkibida uglevodlar, selliyuloza, lignin, fenolglyukozidlar, katexinlar, oshlovchi moddalar, antosianinlar, flavonoidlar, vitamin C bor.	Tol vositasi o'rovchi, qon to'xtovchi, dezinfeksiyalash, haroratni tushirish xususiyatiga ega.
3	Qalinbarg bergoniya	Qalinbarg bergoniya MDH davlatlarida tarqalgan o'simlik.	Dorivor ashyosi-ildizi va barglari. Barglari yoz-kuz oylarida yig'ib olinadi, oddiy usulda quritiladi. Ildizi kuzda yoki	O'simlik tarkibida polifenollar, askorbin va galleovay kislotalar, felobafenlar, arbabunit, izofitodirlar, efir	O'simlik preparatlari yallig'lanishga qarshi, qon to'xtovchi, antiseptik ta'sir qiladi, tomirlar devorini

			erta bahorda tayyorlanadi.	moylari va bergenin moddalar bor.	mustahkamlaydi, biroz qon bosimini pasaytiradi.
4	Dorivor betonika	Dorivor betonika MDH davlatlarida tarqalgan o'simlik.	Dori xomashyosi sifatida yerdan tepa qismi ishlatiladi. Gullagan davrda issiq ob-havoda tayyorlaniladi, 10% o'simlik urug'lantirishga qoldiriladi.	Betonikani tepa qismida efir moyi, alkaloidlar, betonisin, staxidrin, xolin, flavonoidlar, yelimlar, oshlovchi moddalar, achchiqlar, vitamin C va K, kalsiy tuzlari bor.	Dori vositalari quyidagi ta'sirlarga ega, bular: yallig'lanishga qarshi, o't haydovchi, balg'am ko'chiruvchi, astmaga qarshi ishlatiladi.
5	Dala qirqbo'g'imi	Sobiq Ittifoq davlatlarining cho'l va chalacho'l hududlaridan tashqari hamma yerdagi ariq bo'ylarida, qumli o'tloqlarda, butalar orasida, o'rmonlarda va ekinzorlarda o'sadi.	Yer usti qismi, yoz oylarining o'rtalarida dala qirqbo'g'imining yozgi, spora hosil qilmaydigan poyalari o'rib olinadi va soya yerda quritiladi.	Yer usti qismi tarkibida 5% gacha saponinlar, alkaloidlar, flavonoidlar, 190 mg % gacha vitamin C, karotin, oksalat, 25% silikat va boshqa kislotalar, oshlovchi, achchiq moddalar bor.	Damlamasi va suyuq ekstrakti qon aylanishi yetishmovchiligida, siydik pufagi yallig'lanishida va siydik yo'llarining boshqa kasalliklarida siydik haydovchi, me'dadan, ichakdan, bachadondan va bivosil kasalligida qon oqishlarini to'xtatuvchi sifatida qo'llaniladi.
6	Yong'oq	Sobiq Ittifoq mamlakatlari-da o'sadi.	Tibbiyotda yong'oqning bargi va mevasi ishlatiladi. Ba'zan yong'oqning po'sti ham ishlatiladi. Mevasi xomligida yoki to'liq pishib yetilganda qoqib olinadi, quritmay yoki quyoshda quritib ishlatiladi.	Yong'oq po'stlog'ining tarkibida oshlovchi, bo'yovchi moddalar, bargi tarkibida gidrogloklar va ularning glikozidlari, flavonoidlari, 4-5% vitamin C, P va B, karotin, efir moyi, oshlovchi va boshqa moddalar bor.	Bargidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida me'da-ichak yallig'lanishida, ich ketishi, diabet va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi.
7	Dastorbosh	O'rta Osiyoning aholi yashaydigan joylarga yaqin yerlarda, o'tloqlarda,	Gullari o'simlik gullagan vaqtida gulto'plamini qisqa bandi bilan qirqib olinadi va salqin yerda yoki harorati 40°C	Gullarini tarkibida 1,5-2 % efir moyi, flavonoidlar, alkaloidlar, achchiq tanasetin, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Gullarining efir	Gullarining damlamasi va poroshogi gijjalarni tushurishda va jigar kasalliklarida o't haydovchi vosita sifatida hamda

		oʻrmon chetlarida va suv boʻylarida oʻsadi.	boʻlgan quritgichlarda quritiladi.	moyi 47% gacha tuyol spirtidan va boshqa birikmalardan tashkil topgan.	baʼzi ichak kasalliklarini davolash uchun qoʻllaniladi.
8.	Dorivor jeruxa	Dorivor jeruxa MDH davlatlarida tarqalgan oʻsimlik.	Dorivor xomashyosi koʻkati hisoblanadi. Oʻsayotgan maysani 40-45 kundan keyin oʻrib, 40-45 sm ga yetganda xomashyo sifatida ishlatishga tayyorlanadi.	Maysasida efir moylari, yod, kalsiy, magniy, temir, rux, provitaminlari topilgan. Bu oʻsimlikda vitaminlar va mikroelementlar toʻgʻri taqsimlangan.	Jeruxa preparatlari siydik haydovchi, balgʻam koʻchiruvchi, yalligʻlanishga qarshi, qabziyatga qarshi, tonus koʻtaruvchi, modda almashinuvini regulyatsiya qilish xususiyatiga ega.
9.	Oddiy qaragʻay	Oddiy qaragʻay sobiq Ittifoq davlatlarining Yevropa qismi, Sibir, Qozogʻistonning shimoliy qismi, Kavkaz va Uzoq Sharqdagi ignabargli oʻrmonlarning asosiy daraxtlaridan hisoblanadi.	Tibbiyotda oddiy qaragʻayning kurtagi, efir moyi, smolasi va smoladan olingan mahsulotlari ishlatiladi. Qoʻshloq kurtaklar erta bahorda, burtgan vaqtida oʻsib chiqqan joyi bilan birga qirqib olinadi.	Qaragʻay kurtagi tarkibida 0,36 % efir moyi, vitamin E, achchiq, oshlovchi va boshqa moddalar, qaragʻay bargli shoxchasida 0,13-1,3 % efir moyi, 7-12% smola, vitamin C, karotin va boshqa birikmalar bor. Bargli novdalaridan olingan efir moyi 40% pinen, 40% limonene, 11% gacha bornilasetat va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.	Qaragʻay kurtagi damlamasi balgʻam koʻchiruvchi, dezinfeksiya qiluvchi va siydik haydovchi vosita sifatida hamda yuqori nafas yoʻllari kasallanganda ingalyatsiya qilish uchun qoʻllaniladi.

Jadval: Joʻrayeva M.A. “Dorivor oʻsimliklar atlası” (17-54) asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi maʼlumotlarga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, dorivor oʻsimliklar Oʻzbekiston hududida turlarining koʻpligi bilan ajralib turishi namoyon boʻladi. Jadvalda ayrim dorivor oʻsimliklar haqida batafsil maʼlumotlar yozilgan boʻlib, jadvalning 1-qatorida oddiy archa haqida umumiy maʼlumotlar keltirib oʻtilgan. Jadvaldagi maʼlumotlarga qoʻshimcha tarzda aytadigan boʻlsak, trixmonadli kolpitni davolashdan tashqari bronxit, laringit, koʻkyoʻtal, nafas yoʻllarining yalligʻlanishi kasalliklarini ham davolashda ishlatiladi. Jadvalning 2-qatorida oq tol oʻsimligi koʻrsatilgan boʻlib, uning tarkibidagi C vitamini borligi tufayli bir qancha kasalliklarga davo boʻlishi bilan oʻziga xos hisoblanadi. Bularga yurak-qon tomir kasalliklari, glaukoma, katarakda, saraton kasalliklari kiradi. Jadvalning 3-qatori

qalin barg bergoniya o'simligi haqidagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, tomirlar devorini mustahkamlash bilan birga, asab kasalligida, og'iz boshlig'idagi surunkali yallig'lanishlarda ham foydalaniladi. Jadvalning 4-qatori dorivor betonikaga ajratilgan bo'lib, o'simlik tarkibidagi K vitamini tishlarni tashqi ta'sirlardan himoya qilib, kariyesni oldini olish uchun ishlatiladi.

Jadvalning 5-qatorida dala qirqbo'g'imi to'g'risidagi ma'lumot ko'rsatilgan bo'lib, e'tibor beradigan bo'lsak, karotin vitamini borligi ham aytilgan, bu vitamin inson terisini ultrabinafsha nurlaridan saqlovchi modda hisoblanadi. Jadvalning 6-qatori yong'oqqa bag'ishlangan bo'lib, bu o'simlik mevasi iste'mol o'simlik sifatida ishlatilsa, uning uning bargi dorivorli uchun foydalaniladi. Jadvalning 7-qatori dastorboshga ajratilgan bo'lib, bu o'simlik qadimdan insonlar tabobot olamida keng foydalanib kelinayotgan o'simlik hisoblanadi. Jadvalning 8-qatorida dorivor jeruxa o'simligi haqida aytilgan bo'lib, uning tarkibidagi temir elementi inson organizmidagi hujayralarni kislorod bilan ta'minlaydi. Jadvalning 9-qatori oddiy qarag'ay o'simligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bunga qo'shimcha tarzda shuni aytish mumkinki, u diabet, stress kasalligida ham qo'llaniladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dorivor o'simliklar insonlarning salomatligini ta'minlovchi, shuningdek, tabiatni noyob boyliklari hisoblangani uchun ularni o'rganishimiz, ularga ta'sir ko'rsatmay saqlab qolishimiz talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimov A.Y. Komilov X.M. Muxamedova M.Sh. Xodjayeva M.A. Farmonova N.T. Dorivor o'simliklar resursshunosligi fanidan ma'ruzalar matni.-T.:2012.
2. Jo'rayeva M.A. Dorivor o'simliklar atlas.-T.:Noshir, 2019.-17-18-54-bet